

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

No 895 - 29 - 08 2022y.



“EKOLOGIK MENEJMENT ASOSLARI”
FANI
SILLABUSI

Bilim sohasi: 600 000 – Xizmat sohasi
Ta'lim sohasi: 630 000 – Atrof muhit muhofazasi
Ta'lim yo'nalishi: 5630100 – Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (sanoatda)

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha
O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2020 yil
«30» 10 dagi «6» -sonli bayonnomasi bilan maqullangan.

Tuzuvchi:
Boyrov Z.R.

– "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasining assistenti

Taqrizchilar:
Eshonqulov R.A.

– QarMII, Ekologiya va mehnat muhofazasi kafedrasining mudiri
t.f.d dotsent

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasining 2022 yil "1" 20.08 dagi № son yig'ilishida hamda "Geologiya va konchilik ishi" fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil "1" 20.08 dagi № 1 son yig'ilishida muhokama qilinib tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil "1" 20.08 dagi № 1 son yig'ilishi qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

Sh.R.Turdiyev

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi

M.G'ofirov

Kafedra mudiri:

R.A.Eshonqulov

“Ekologik menejment asoslari” fani sillabusi

Fan/modul kodi EMA3711	O‘quv yili 2022-2023	Semestr 6	ECTS - Kreditlar 3
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim	Jami yuklama
Ekologik menejment asoslari	60	30	90

O‘qituvchi haqida ma’lumot

Kafedranomi	Ekologiya va mehnat muhofazasi		
O‘qituvchilar	F.I.Sh.	Telefon nomeri	e-mail
Ma’ruzachi	Boyirov Zafar Ravshanovich	+998907211141	z.boyirov@mail.ru
Amaliy mashg‘ulot	Boyirov Zafar Ravshanovich	+998907211141	z.boyirov@mail.ru

Fanning mazmuni

2.1. Fanni o‘qitish maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga sanoat korxonalarining atrof muhit gasalbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish obyektni loyiha bosqichidan boshlab to faoliyat boshlanguncha hamda korxonani to’li bilish faoliyati moboynda ekologik boshqaruv tizimining barcha vazifalari bilan tanishtirish va bu vazifalarni malakali bajarishga o‘rgatishdir.

Fanning vazifasi- talabalarda sanoatda ekologik menejmentni olibborish orqali korxonalarning atrofmuhitiga ta’sirini baholash, sanoat korxonalarida atrof muhitni boshqarishning xalqaro dunyo standartlariga asoslangan o‘lchovlarni amalda qo‘llash, ekologik me’yorlarni ishlab chiqish, atrofmuhitning ifloslanishini oldini olish va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini yo‘lga qo‘yishni o‘rgatish va korxonada ekologik siyosat tizimini olib boorish bilimini shakllantirishdan iborat.

Ta’lim texnologiyalari va uslublari

Mutaxassislikning o‘ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o‘zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e’tibor auditoriya mashg‘ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o‘zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda obyektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyo qarashni shakllantirishda ma’ruza mashg‘ulotlariga kattao‘rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o‘zlashtirish olti xil:

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;

- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhdarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;

jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qilaolish qobiliyatlarini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

2.2. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

VI - semestr

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
1	Kirish. Barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik.	Fan – texnika taraqqiyoti va ekologik barqarorlik. Ozbekiston Respublikasining ekologik va iqtisodiy siyosati. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yonalishlari. Ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash. Loyihalarni moliyalashda ekvator prinsiplari.	2
2	Ekologik boshqarish asoslari.	Ekologik boshqaruv shakllanishi va rivojlanish tarixi. Ekologik menejment tushunchasi, obyekti, maqsad va vazifalari. Ekologik menejment tamoyillari.	2
3	Ekologik menejmentning xalqaro standartlar tizimi.	Ekologik menejment tizimlari sohasida BS-7750 Britaniya standarti. Ekologik menejment va audit sxemalari. ISO 14000 standartlar tizimi.	2
4	Ekologik menejment tizimi.	Korxona uchun ekologik menejment tizimini ishlab chiqish. Ekologik siyosatni amalga oshirishda ekologik menejmentning o'rni.	2
5	Ekologik baholash asoslari.	Dastlabki ekologik baholash va ekologik aspektlarni aniqlash. Ekologikta'sirlar. Ekologik jihatlarning tasniflanishi va ularning ustuvorligi. Korxonada ekologik boshqaruv tizimi strukturasi. Ekologik boshqaruv tizimida kommunikatsiyalar.	2
6	Ekologik menejment funksiyalari.	O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish korxonalarida ekologik boshqaruv tizimi. Qo'yilgan ekologik talablar va maqsadlarni hal etish, atrof muhitga ta'sir etuvchi jarayonlarni boshqarishga qaratilgan tadbirlar, ish yuritish hujjatlari. Atrof muhit holati va uni boshqarish tizimini nazorat qilish.	2
7	Atrof muhitga	Atrof muhitga ta'sirlarni baholash tadbiri bo'yicha	2

	ta'sirlarni baholash tadbirlari.	umumiy tushuncha. Atrof – muhitga ta'sirlarni baholash jarayonini tashkil etishning zaruriy holatlari. Atrof - muhitga ta'sirni baholash tamoyillari.	
8	Atrof – muhitga ta'sirni baholash bosqichlari.	“Atrof – muhit holati haqida umumiy ma'lumotlar” hujjatini tayyorlash bosqichi. Dastlabki atrof - muhitga ta'sirlarni baholash bosqichi.	2
9	Atrof – muhitga ta'sirni baholashning tahliliy materiallarini tayyorlash.	Atrof – muhitning tarkibiy qismlari bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlash. Atrof – muhitga baholashning “Atrof – muhit muhofazasi” bo'limini ishlab chiqish.	2
10	Qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki.	Atrof - muhitga ta'sirni baholash tadbirida jamoatchilikishtiroki bo'yicha xalqaro tavsiyalar va qonuniy asoslar. Jamoatchilik ishtirokining maqsadlari va ularni tashkil qilish prinsiplari. Xalqaro tajribalar.	2
	Jami		20

Amaliy mashg'ulotlar VI - semestr

№	Mavzular	soat
1	Ishlab chiqarish jarayonining atrof – muhitga ta'sirining ekologik aspektlarini aniqlash va dastlabki baholash	4
2	Ekologik aspektlarni aniqlash	4
3	Atrof - muhitga ta'sirni baholash tadbiri hujjatlarini texnik ekspertizadan o'tkazish.	4
4	Atrof muhitga ishlab chiqarish jarayonida tashlanadigan tashlamalarning ruxsat etilgan chegaraviy tashlamasini hisoblash.	4
5	Heft va benzinning yalpi tashlamalarini aniqlash.	4
6	Korxonaning suvga bo'lgan talabi yoki ehtiyojini hisoblash.	4
7	Sanoat korxonalarning suvga bo'lgan ehtiyoji va ishlab chiqarish jarayonida hosil boladigan oqova suvlarni hisoblash.	4
8	Maxsus suv ishlatishga ruxsat.	4
9	Hosil bo'ladigan chiqindi me'yorini va uni joylashtirish limitini hisoblash.	4
10	Atrof muhitni ifloslantirish va chiqindilarni joylashtirish bo'yicha to'lovlarni hisoblash.	4
Jami:		40

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfakt usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi, amaliy mashg'ulot mavzusidan kelib chiqib muzey va ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalarni tashkil qilish maqsadga muvofiq.

2.3. Mustaqil talim va mustaqil ishlar

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalarni mustaqil ta'lim ma'ruzalar konspekt va tavsiya etilgan adabiyotlar hamda davriy jurnallar, internet materiallari bilan

ishlashni, standart va malaka talablariga mos ravishda mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

1. O'zbekiston va dunyodagi hozirgi kundagi ekologik holat.
2. Ekologik muammolarning paydo bo'lish sabablari salbiy ta'sirlar va ularningoldini olish.
3. Yirik ishlab chiqarish korxonalariningatrofmuhitgata'sirini baholash.
4. Sanoat chiqindilari ularni to'planishi,atrofmuhitga salbiy ta'siri, muammolar va taklifetiladiganyechimlar.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, taqdimot materiallari, Google Apps (Google ilovalarda guruh bo'lib hujjat, jadval, prezentatsiya va testlar tayyorlash), SWOT (muammoni SWOT-tahlil qilish) tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

2.4. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modulplatformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llayoladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **5 (a'lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llayoladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalayoladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **4 (yaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimini amalda qo'llayoladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalayoladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **3 (qoniqarli) baho**;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabanning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

“Inson xavfsizligi va toksikologiya” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

-mehnat gigienasi va texnika xavfsizligi chora tadbirlari, korxonadagi zararli va xavfli omillardan muhofazalanish, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, zaharli moddalarning zaharlilik darajasi zaharli moddalarning chegaraviy mumkin bo'lgan miqdorlari va ularni aniqlash usullari;

-zaharli moddalarni tirik organizmlarga ta'siri haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;

-Xavfsiz mehnat sharoiti yaratishning tashkiliy masalalari, shaxsiy va jamoa himoya vositalaridan foydalanish, zararli moddalar kumulyasiyasi koeffitsientini kamaytirish usullarini to'g'ri tanlash, zaharli moddalarning organizmda mavjudligini kamaytirishning usullarini tanlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini, ishlab chiqarishda jarohatlanish, uni tekshirish, o'rganish va tahlil qilish asoslarini, mashina va mexanizmlarning konstruksiyasiga qo'yiladigan xavfsizlik talablarini, mehnat gigienasi, xavfli va zararli omillar, zaharli moddalarning klassifikatsiyasi, fizik-kimyoviy hususiyatlarni va ularni inson organizmiga ta'siri to'g'risida aniq malakalarga ega bo'lishi kerak;

Qo'yilgan fazifalar o'qish jarayonida talabalarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi, adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi va o'qituvchi kuzatuvda mustaqil ta'lim olishi bilan amalga oshadi.

2.5. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. ISO 14001. “Спецификация и руководство по использованию систем экологического менеджмента”. ISO, 1996 yil.
2. ISO 14011. “Процедуры – часть 1: Аудит системы экологического менеджмента”.
3. ISO 14012. “Квалификационные критерии для экологических аудиторов”.
4. Musayev M.N. Управление окружающей средой на промышленном предприятии. Учебное пособие. – Т.:Изд. “Fan va texnologiya”, 2019. – 200 b.

5. Richard O. Mines, Jr. Ecological Engineering: principles and Practice. School of Engeeneering, Mercer Univercity, Macon,Georgia, USA. ISBN 978-1-118-80145-1. This edition published byjohn Wiley & Sons,Ltd. 2014-663 p.
6. Strelnikov V.V., Chernisheva N.V. Ekologicheskoe normirovaniye. Uchebnik-Krosnadar: IzdatelskiyDom-Yud, 2012-472 s.
7. Dmitrenko V.P., Sotnikova E.V., ChernyayevA.V. Ekologicheskii monitoring texnosferi: Uchebnoe posobiya. – SPb.: Izd. “Lan”, 2012-368 s.
8. Ibragimov N.I., Musayev M.N., Abidov B.A., Muhammedgaliyrv B.A. Loyihalash asoslari va ekologik ekspertiza.
9. Makarov S. V., Gusyev T.V. “Ekologicheskii menedjment” – Himiya v Rossii: 2003 g.
10. Meskon M. “Osnovi menedjmenta” – M.: “Delo”, 1995 g.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.. "O‘zbekiston” NMIU, 2017.-488 6.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil13 dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, electron hukumathamda axborottizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5598-son Famoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.12.2018 y. 06/18/5598/2313-son)
3. Марцул В.Н.,Капориков В.П. Технические основы охраны окружающей среды. 2005 г.
4. Сорокин Н.Д. Охрана окружающей среды на предприятиях. СПб.: Фирма Интеграл. 2005. Учебник.

Internet axborot manbalari

14. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali
15. www.youtube.uz – video roliklar portali
16. www.eco.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilishdavlat qo‘mitasi rasmiy sayti
17. www.texhologiy.ru
18. www.gov.uz